



ISSN 2091-5187

СЕРВИС

№4/2

ИЛМИЙ-АМАЛИЙ
ЖУРНАЛ

2024



СЕРВИС

ИЛМИЙ-АМАЛИЙ ЖУРНАЛ 2024 йил, 4/2-сони

Муассис: Самарқанд иқтисодиёт ва сервис институти

Ўзбекистон Матбуот ва ахборот агентлиги томонидан 2008 йил 31 декабрда
0561-рақам билан рўйхатга олинган.

ЎзР ОАК Риёсатининг 19.03.2017 й., 239/5-сонли қарори билан эътироф этилган

**Тахририят ижодий
жамоаси:**

Бош муҳаррир:

и.ф.д., проф. М.Э.Пўлатов

Бош муҳаррир

ўринбосари:

и.ф.н., проф. Д.Х.Асланова

Масъул котиб:

и.ф.д., проф. М.Қ.Пардаев

Муҳаррирлар:

и.ф.д., доцент Ф.А.Сафаров
PhD, доцент И.М.Пардаева
А.Х.Мингбоев

Техник муҳаррир:

и.ф.н., проф. А.Н.Холиқулов

Корректор:

PhD, доц. С.А.Бабаназарова

Саҳифаловчи:

PhD Х.Н.Очилова

1 йилда 4 маротаба
чоп этилади.

**Ўзбекистон худудида
тарқатилади.**

Тахририят манзили:

140100, Самарқанд шаҳар,
Амир Темур кўчаси, 9-уй,

тел.: +998(66)233-28-38,
+998(97)913-74-40

факс: +998(366)231-12-53
эл.почта:

samisiservis@mail.ru

Тахририят кенгаши раиси:

М.Э.Пўлатов – Самарқанд иқтисодиёт ва сервис
институти ректори, и.ф.д., профессор

Тахририят кенгаши раиси ўринбосари:

Д.Х.Асланова – СамИСИ илмий ишлар ва
инновациялар бўйича проректори, и.ф.н., профессор

Тахрир кенгаши аъзолари:

Б.А.Бегалов – Ўзбекистон Республикаси Президенти
хузуридаги Статистика агентлиги директори, и.ф.д.,
профессор

М.Қ.Пардаев – СамИСИ профессори, и.ф.д.

Б.К.Ғоибназаров – и.ф.д., профессор.

М.М.Мухаммедов – СамИСИ профессори, и.ф.д.

Д.Р.Зайналов – СамИСИ профессори, и.ф.д.

О.М.Муртазаев – ТДИУ СФ директори, и.ф.д., проф.

М.Р.Болтабаев – ТДИУ профессори, и.ф.д.

Р.Х.Эргашев – ҚарМИИ профессори, и.ф.д.

И.С.Тўхлиев – СамИСИ профессори, и.ф.д.

К.Б.Уразов – СамИСИ профессори, и.ф.д.

Қ.Ж.Мирзаев – СамИСИ профессори, и.ф.д.

Б.И.Исроилов – ТДИУ профессори, и.ф.д.

Г.М.Шодиева – СамИСИ профессори, и.ф.д.

Б.Абдукаримов – СамИСИ профессори, и.ф.н.

Р.Қобилов – Самарқанд вилояти ҳокими ўринбосари

С.Н.Тошназаров – СамИСИ профессори, и.ф.д.

Р.Н.Нормахматов – СамИСИ профессори, т.ф.д.

А.Бектемиров – СамИСИ профессори, и.ф.д.

О.М.Пардаев – СамИСИ профессори, и.ф.д.

М.Т.Алимова – СамИСИ профессори, и.ф.д.

З.Дж. Адилова – ТДИУ профессори, и.ф.д.

Ш.О.Қувондиқов – СамИСИ профессори в.б., иқтисод
фанлари доктори

Л.Н.Халикова – СамИСИ профессори, DSc

Ф.А.Сафаров – СамИСИ доценти, DSc

А.М.Каримова – СамИСИ профессори в.б., DSc

МЕНЕЖМЕНТ ВА МАРКЕТИНГ	
Rayhona Sadriddinova Amriddinova, Shaxrizoda Xolmirzaeva Mehmonxonada sifatni boshqarish tizimini yo'lga qo'yish	148
Мохигул Эркиновна Ахтамова Управление бизнесом в Республике Узбекистан и пути её совершенствования	150
Бахтиёр Васиевич Насимов Идентификация основных проблем и вызовов, связанных с управлением производственными запасами	156
Qobiljon Qaxramon o'g'li Shodmonov Sanoat korxonalarini boshqaruvni samaradorligini oshirishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmi	162
Muxabbat Sameyevna Sharipova Yashil iqtisodiyotga o'tish jarayonida boshqaruvning strategik vazifalari	166
МОЛИЯ, ПУЛ МУОМАЛАСИ ВА КРЕДИТ	
Зухур Давронович Ниёзов, Шухратжон Зухурович Давронов Иқтисодийда молиявий ресурсларни кўпайтириш	173
Азиза Махомадризовна Каримова, Ориф Шакирович Максудов Анализ предпринимательской деятельности в Республике Узбекистан	179
Sanjar Jaloliddin o'g'li Abdusaidov Sug'urta korxonalarida MHSni qo'llashning muammo va yechimlari	184
Pyos Pkhovich Ayubov, Muhriddin Ixtiyor o'g'li Ergashev Valyuta bozori tahlili va uni erkinlashtirish yo'llari	189
Зафаржон Яшинович Рахманов Тижорат банклари фаолиятида трансформацион жараёнлар: муаммо ва ечимлар	192
БУХГАЛТЕРИЯ ҲИСОБИ, ИҚТИСОДИЙ ТАҲЛИЛ ВА АУДИТ	
Nodirbek Xurshid o'g'li Berdiqobilov Korxonalarda xarajatlarning strategik boshqaruv hisobini takomillashtirish	199
Саёхат Зафаровна Зарипова Ведение учета основных средств на основе международных стандартов бухгалтерского учета	203
ТАЪЛИМ, КАДРЛАР ТАЙЁРЛАШ ВА ПЕДАГОГИКА	
Sohiba Sirojiddinova Kamolova, Mohigul Xudoyberdi qizi Jamolova Ta'lim jarayonida axborot texnologiyalarining imkoniyatlari	206
Ihom Begmatdulobovich Mattiyev Sog'lomlashtirish va dunyoqarash texnologiyasi tushunchasining mazmun-mohiyati hamda funksiyalari.	209
Nigina Marupovna Usmanova, Sevinch Sobirjonovna Rahmonkulova Kadrlarni saqlab qolish strategiyalarini qo'llashda kadrlar siyosatining ahamiyati	213
ИБРАТЛИ БИТИКЛАР	
Мамаюнус Қаршибаевич Пардаев Ўзимизга ўзимиз ташвиш орттирмайлик	218

11. Полуанов Б.А., Пирматов А.П., Толыбаев А.Р., Абатов М.А. Анализ характеристик технологических процессов хлопково-текстильного кластера// Universum: технические науки. – 2024. - №3(120). – С.6

12 <https://m-economy.ru/art.php?nArtId=4335>

<p>B.Nasimov</p> <p>Ishlab chiqarish zahiralari boshqarish bilan bog‘liq asosiy muammolar va ularni aniqlash</p> <p>Annotatsiya. Ushbu maqola ishlab chiqarish zahiralari boshqarish sohasidagi tashkilotlar oldida turgan asosiy muammolarni o‘rganadi. Biz ushbu muhim sohaga ham an’anaviy, ham zamonaviy yondashuvlarni ko‘rib chiqamiz hamda kompaniyalarga yuzaga kelayotgan muammolarni samarali hal qilish va jarayonlarini takomillashtirish imkoniyatlaridan foydalanishga yordam beradigan tavsiyalar va strategiyalarni taklif qilamiz.</p> <p>Kalit so‘zlar: zahiralarni boshqarish, ishlab chiqarish zahiralari, ta’minotning beqarorligi, talabning o‘zgarishi, xarajatlarni optimallashtirish, logistika, texnologiya, sun’iy intellekt.</p>	<p>B.Nasimov</p> <p>Identification of the main problems and challenges related to the management of production stocks</p> <p>Abstract. This article examines the key issues and challenges facing organizations in the area of production inventory management. We analyze both traditional and modern approaches to this important area, and offer recommendations and strategies that will help companies effectively cope with the difficulties that arise and take advantage of opportunities to improve their processes.</p> <p>Keywords: inventory management, production stocks, supply volatility, demand fluctuations, cost optimization, logistics, technology, artificial intelligence.</p>
--	--

Qobiljon Qaxramon o‘g‘li Shodmonov – O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi davlat boshqaruvi akademiyasi mustaqil tadqiqotchisi

SANOAT KORXONALARI BOSHQARUVI SAMARADORLIGINI OSHIRISHNING TASHKILIY-IQTISODIY MEXANIZMI

<p>Annotatsiya. Sanoat korxonalarini iqtisodiyotning asosiy tarmoqlaridan biri bo‘lib, ularning samarali boshqaruvi mamlakat iqtisodiy rivojlanishida muhim ahamiyatga ega. Ushbu maqolada sanoat korxonalarini boshqaruvi samaradorligini oshirishda tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlar va ularning amaliy natijalari iqtisodiy tahliliy va statistik ma’lumotlar asosida o‘rganildi, samarali boshqaruv yuzasidan taklif va tavsiyalar taqdim etildi.</p> <p>Kalit so‘zlar: samarali boshqaruv, sanoat korxonalarini, intellektual resurslar, innovatsion boshqaruv, innovatsion loyiha, motivatsiya tizimi.</p>

Kirish. Yangi O‘zbekistonni barpo etish sharoitida sanoat korxonalarini barqaror rivojlantirish, ularning raqobatbardoshligini ta’minlashning muhim omili hisoblangan ishlab chiqarishning innovatsion salohiyatini oshirish masalalariga alohida ahamiyat qaratilmoqda. Jumladan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentabrdagi PQ 300-son “O‘zbekiston – 2030” strategiyasi, 2023-yil 18-dekabrdagi PQ 397-son “Sanoatni rivojlantirish jamg‘armasi faoliyatini tashkil etish tartibi to‘g‘risida”, 2022-yil 6-iyuldagi PQ 307-son “2022-2026-yillarda O‘zbekiston Respublikasining innovatsion rivojlanish strategiyasini amalga oshirish bo‘yicha tashkiliy chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi qarorlari va Vazirlar Mahkamasining 2024-yil 13 martdagi 128-son “O‘zbekiston Respublikasining innovatsion rivojlanish strategiyasini 2024-2025-yillarda amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori hamda mazkur sohaga tegishli boshqa me‘yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda mazkur ilmiy maqola muayyan darajada xizmat qiladi.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili. Sanoat korxonalarida samarali boshqaruv salohiyatini oshirishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlarini takomillashtirish, uning nazariy va amaliy jihatlari xorijlik iqtisodchi olimlar R.Solou, A.Smit, S.Kuznes, J.Shumpeter, K.Makkonel,

S.Bryu, P.Druker, B.Tviss¹ va boshqalarning ilmiy asarlarida atroflicha tahlil qilingan.

Iqtisodiyotni raqamlashtirish sharoitida barqaror o‘shishni ta’minlashda, jumladan, sanoat korxonalarini rivojlantirish, uning tashkiliy-iqtisodiy mexanizimini takomillashtirish, sanoat korxonalarida innovatsion texnologiyalar asosida boshqarish orqali samaradorlikka erishishning ayrim nazariy jihatlari O‘zbekistonlik olimlar M.A.Maxkamova, S.A.Nabiyeva, A.V.Vaxabov, H.P.Abulqosimov, T.S.Rasulov, A.F.Rasulov, A.M.Qodirov, A.R.Yoqubjonov, Z.T.Gaibnazarova, Sh.E.Sindarov, O.X.Xamrayev² va boshqalarning ilmiy asarlarida tasniflangan.

Tadqiqot metodologiyasi. Mazkur ilmiy maqolada ilmiy muammoni o‘rganish doirasida tizimli tahlil, guruhlash, induksiya va deduksiya, statistik va solishtirma tahlil, abstrakt-mantiqiy yondashuv kabi usullardan foydalanilgan.

Tahlil va natijalar. Korxonalarni boshqaruv samaradorligining mohiyati deganda korxonaga maqsadlariga erishish uchun resurslarni minimal xarajatlar bilan maksimal natijaga yo‘naltirish tushuniladi. Bunda asosiy nazariy yondashuvlar korxonaning strategik va operatsion maqsadlarini aniq belgilash va ularga erishish yo‘llarini ishlab chiqish, resurslarni optimallashtirish, moliyaviy, moddiy, insoniy va intellektual resurslarni samarali boshqarish, shuningdek, innovatsion boshqaruvni, ya’ni, yangi texnologiyalar va boshqaruv usullarini qo‘llash orqali korxonaning raqobatbardoshligini oshirish orqali amalga oshadi. Sanoat korxonalarini innovatsion salohiyatidan kelib chiqib, boshqaruvning shakllanishi va uning darajasining o‘zgarishi ma’lum omillar ta’sirida sodir bo‘ladi. Boshqaruv samaradorligini oshirishga ta’sir qiluvchi omillar quyidagilar:

Tashkiliy tuzilma	• Korxonaning boshqaruv tuzilmasini modernizatsiya qilish va uni bozor talablariga moslashtirish.
Xodimlarning malakasi	□ Menejerlar va ishchilarni tayyorlash va qayta tayyorlash dasturlari orqali ularning malakasini oshirish.
Axborot texnologiyalari	• Boshqaruv jarayonlarida zamonaviy IT vositalarini qo‘llash.
Motivatsiya tizimi	□ Xodimlarni rag‘batlantirish va ularning ishga bo‘lgan qiziqishini oshirish.

Hozirgi vaqtda, sanoat korxonalarining boshqaruv samaradorligini o‘ziga xos ko‘rsatkichlari ham mavjud bo‘lib, ushbu ko‘rsatkichlar orqali innovatsion boshqaruvni tasnifi me’zonini aniqlash imkonini beradi. Shuningdek, ushbu ko‘rsatkichlar orqali sanoat korxonalarini innovatsion salohiyatini rivojlanishini, samaradorligi, unumdorligini aniqlashimiz mumkin bo‘ladi.

❖ Sanoat korxonasiining moliyaviy natijalari (daromad, foyda, rentabellik);

¹ Solow R.M. On Theories of Unemployment. // American Economic Review. 1980. Vol. 70. P. 1-12; Смит А. Исследование о природе и причинах богатства народов. – М.: Соцэкгиз. 1962. С. 345; Simon Kuznetz, “Modern economic growth: Findings and reflections”, Nobel lecture delivered in Stockholm, Sweden, December 1971 and published in the American Economic Review 63 (September 1973), Шумпетер Й.А. Теория экономического развития. М.: Прогресс, 1983. – С. 278-285. Макконнел К.Р., Брю С.Л. Экономикс: Принципы, проблемы и политика: В 2-т.: Пер. с англ. 13-го изд.: Учеб – Т. 1. – М.: ИНФРА – М, 2001. – 974 с.;

² Maxkamova M.A Sanoat korxonalarida innovatsion faoliyat samaradorligini oshirish mexanizmi, iqtisod fanlar doktori, professor, Toshkent Davlat Texnika Universiteti. Научные исследования и инновации в индустрии 4.0 I-Республиканская научно-техническая конференция (Ташкент, 13-15 марта 2022 года);Sanoat korxonalarida innovatsion salohiyatni rag‘batlantirish mexanizmlari takomillashtirish. I.f.f.d ilmiy darajasini olish uchun yozilgan avtoreferat – Т.: 2021; В.1Вахабов А.В. Модернизация экономики. Учебное пособие / - Т.: «IQTISOD - MOLIYA», 2014. – С. 200.; Абулкасимов Х.П., Расулов Т.С. Особенности научно-технической и инновационной политики стран СНГ, Ближнего и Среднего Востока. Учебное пособие. – Т.: ТашГИВ 2017. – С. 15-17.;

- ❖ Ishlab chiqarish ko‘rsatkichlari (ishlab chiqarilgan mahsulot hajmi, mehnat unumdorligi);
- ❖ Xodimlarning qoniqish darajasi (bozorda egallangan ulush va mijozlar qoniqishi)

Sanoat korxonalarida to‘g‘ri boshqaruvni yo‘lga qo‘yish va samaradorlikni oshirishning strategik usullari sifatida strategik rejalashtirish, ya‘ni uzoq muddatli maqsadlar belgilash va ularga erishish uchun aniq rejalar ishlab chiqish muhim hisoblanadi. Qolaversa, bugunda rivojlangan mamlakatlar tajribasida keng qo‘llanilayotgan SMART usuli ayniqsa, strategic rejalar tuzishda ahamiyatlidir. Shuningdek, boshqaruv va ishlab chiqarish jarayonlarini soddalashtirish va takomillashtirish boshqaruvni shaffofligini ta‘minlaydi. Sanoat korxonalarini boshqarishda innovatsion loyihalar ishtiroki alohida o‘rin tutadi. Bu yangi mahsulot va xizmatlarni yaratish, bozor imkoniyatlarini kengaytirishga yordam beradi.

Korxonalarni boshqarish samaradorligini oshirishning nazariy jihatlarini to‘g‘ri tushunish va amaliyotda qo‘llash korxonalar raqobatbardoshligini oshiradi hamda uzoq muddatli muvaffaqiyatni ta‘minlaydi. Korxonani boshqarish samaradorligi iqtisodiy ko‘rsatkichlar orqali baholanadi. Ushbu ko‘rsatkichlar korxonaning resurslardan qanday foydalanayotganini va maqsadlarga erishish darajasini aniqlash imkonini beradi. Ularni to‘g‘ri tahlil qilish boshqaruv jarayonlarini optimallashtirish uchun zarur hisoblanadi. **Ko‘rsatkichlarni yaxshilash strategiyalarini tahlili** korxonalarining egallab turgan bozordagi barqaror holati va rivojlanish dinamikasini ta‘minlashning shart-sharoiti hamda uning raqobatbardoshligini oshirishning asosiy omili hisoblanadi:

1. **Ishlab chiqarish jarayonini avtomatlashtirish.**
2. **Moliyaviy xarajatlarni nazorat qilish va optimallashtirish.**
3. **Innovatsiyalar va yangi texnologiyalarni joriy etish.**
4. **Xodimlar motivatsiya tizimini takomillashtirish.**

Iqtisodiy ko‘rsatkichlarni muntazam tahlil qilish va ularni boshqarishning strategik vositalarini qo‘llash korxonaning samaradorligini oshirish uchun muhim ahamiyatga ega.

Sanoat korxonalarini samaradorligini oshirish uchun tashkiliy va iqtisodiy mexanizmlarning uyg‘unligi muhimdir. Tashkiliy mexanizmlar korxonalar ichki jarayonlarini tartibga solishda, iqtisodiy mexanizmlar esa resurslardan optimal foydalanishni ta‘minlashda asosiy rol o‘ynaydi. Tashkiliy mexanizmlar: korxonalar tuzilmasini takomillashtirish, boshqaruv jarayonlarini avtomatlashtirish, xodimlarning malakasini oshirishni qamrab olgan bo‘lsa, iqtisodiy mexanizmlar: samaradorlik ko‘rsatkichlarini aniqlash, moliyaviy rag‘batlantirish tizimlari, soliqlarni optimallashtirishni o‘z ichiga oladi.

Innovatsion boshqaruv texnologiyalari korxonalarda samaradorlikni oshirishning muhim omillaridan biri hisoblanadi. Shu jumladan: raqamli texnologiyalar, avtomatlashtirilgan boshqaruv tizimlari va ishlab chiqarish jarayonlarida IoT (Internet of Things) texnologiyalaridan foydalanish bugungi kunda innovatsion boshqaruvda keng qo‘llanilmoqda. Qolaversa, sanoat korxonalarini boshqaruvida barqarorlikni ta‘minlash borasida yashil iqtisodiyot prinsiplari ya‘ni, energiya samaradorligini oshirish va chiqindilarni kamaytirish, resurslarni tejash dasturlari doirasida xomashyo va materiallardan tejimli foydalanish eng maqbul yechimdir.

Xulosa va takliflar. Sanoat korxonalarini boshqaruvi samaradorligini oshirish uchun tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlarni takomillashtirish muhim ahamiyatga ega. Yuqorida keltirilgan usullarni qo‘llash orqali korxonalar nafaqat o‘z iqtisodiy natijalarini yaxshilashi, balki umumiy iqtisodiyotga ham ijobiy ta‘sir ko‘rsatadi. Innovatsion texnologiyalar va malakali boshqaruv tizimlari joriy etilishi kelajakda yanada yuqori natijalarga erishishni ta‘minlaydi. Shu nuqtai nazardan kelib chiqib, sanoat korxonalarini boshqaruvi samaradorligini oshirishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlarini takomillashtirish bo‘yicha tavsiyalar ishlab chiqish muhimdir.

1. Xodimlarning malakasini oshirish borasida: boshqaruv jarayonlarida yuqori malakali kadrlarni jalb qilish va xodimlarni o‘qitish, malakasini oshirish bo‘yicha xalqaro tajribalarni qo‘llash.
2. Moliyaviy rag‘batlantirish tizimini takomillashtirish: samaradorlikka erishgan xodimlarni mukofotlash, motivatsiyalash tizimini to‘g‘ri qo‘llash va KPI.

3. Raqamli boshqaruv tizimlarini keng joriy etish: bu korxonaga ichidagi resurslarni boshqarishni optimallashtiradi va vaqtni tejaydi.
4. Bozor talablariga moslashuvchanlikni oshirish: mahsulotlar sifatini oshirish va yangi bozor segmentlariga kirishish.

Fikrimizcha, sanoat korxonalari boshqaruvi samaradorligini oshirishda uning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlarini takomillashtirish lozim hisoblanib, buning uchun birinchilardan bo‘lib innovatsion komponentlarning rivojlanishini ta‘minlash, bozorni muvofiqlashtirish va sanoat tizimi ishtirokchilari o‘rtasidagi o‘zaro munosabatlar muammolarini hal qilishning yangi shakllarini izlash talab etiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 07-avgustdagi “Sanoat sohasida nufuzli xalqaro brendlar bilan hamkorlikni rivojlantirish va milliy brendlarni qo‘llab-quvvatlash chora-tadbirlari to‘g‘risida” PQ-286-son qarori www.lex.uz.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentabrdagi “O‘zbekiston – 2030” strategiyasi to‘g‘risida PF-158-son farmoni, www.lex.uz.
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi “2022-2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning Taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida” PF-60-son farmoni www.lex.uz.
4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 18-dekabrdagi “Sanoatni rivojlantirish jamg‘armasi faoliyatini tashkil etish tartibi to‘g‘risida” PD-397-son qarori www.lex.uz.
5. Дракер П.Ф. Инновации и предпринимательство. М.: 1992. 234 с.
6. Инновационный потенциал предприятий, его оценка и методы реализации / Г.А. Смирнова, М.Н. Титова, Е.П. Мазур, Я.В. Смирнов // Инновации. - 2001. -№1.
7. Инновационный менеджмент: Концепции, многоуровневые стратегии и механизмы инновационного развития: Учеб. пособие / Под ред. В.М. Аньшина, А.А. Дагаева. – 3-е изд., перераб., доп. – М.: Дело, 2007. – 584 с. 270 - 271с.
8. Макконнел К.Р., Брю С.Л. Экономикс: Принципы, проблемы и политика: В 2 т.: Пер. с англ. 13-го изд.: Учеб – Т. 1. – М.: ИНФРА – М, 2001. – 974 с.
9. Баскакова М. Японская экономическая модель / Баскакова М. // Мировая экономика и международные отношения. – 2014. – № 1. – С. 98–106.

<p>К.Шодмонов Организационно-экономический механизм повышения эффективности управления промышленными предприятиями</p> <p>Аннотация. Промышленные предприятия являются одним из основных секторов экономики, и их эффективное управление имеет важное значение для экономического развития страны. В данной статье на основе экономико-аналитических и статистических данных исследованы организационно-экономические механизмы и их практические результаты в повышении эффективности управления промышленными предприятиями, представлены предложения и рекомендации по эффективному управлению.</p> <p>Ключевые слова: эффективный менеджмент, промышленные предприятия, интеллектуальные ресурсы, инновационный менеджмент, инновационный проект, система мотивации.</p>	<p>K. Shodmonov Organizational and economic mechanism of increasing the efficiency of management of industrial enterprises</p> <p>Abstract. Industrial enterprises are one of the main sectors of the economy, and their effective management is important for the economic development of the country. In this article, organizational-economic mechanisms and their practical results in increasing the efficiency of management of industrial enterprises were studied on the basis of economic analytical and statistical data, suggestions and recommendations regarding effective management were presented.</p> <p>Keywords: effective management, industrial enterprises, intellectual resources, innovative management, innovative project, motivation system.</p>
---	--

ISSN 2091-5187

☞ “СЕРВИС” ☞

Журнал Самарқанд иқтисодиёт ва сервис институти таҳририят
бўлимида нашрга тайёрланди.

20.11.2024 йилда теришга берилди. 11.12.2024 йилда босишга рухсат этилди.
Офсет босма қоғози. Қоғоз бичими 60x84_{1/8}. “Times” гарнитураси. Офсет
босма усули. Шартли босма табағи 14,6. Ҳисоб-нашриёт
табағи 12,5. Адади 100 нусха. Буюртма № 0134В/24

Самарқанд иқтисодиёт ва сервис институтининг
матбаа бўлимида чоп этилди.
Лицензия № 025316.
Реестр № Х-119112.

Манзил: Самарқанд шаҳри, Шохрух кўчаси, 60-уй.

© Самарқанд иқтисодиёт ва сервис институти, 2024.